

## TERGOV EKSPERIMENTINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Odiljonov Hojiakbar Hayotjon o'g'li  
Farg'ona viloyati yuridik texnikumi  
“Davlat-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi  
1-bosqich 29-guruh o‘quvchisi

### Annotatsiya:

Maqolada muallif tomonidan jinoyatlarni tergov qilishda qo‘llaniladigan tergov harakatlaridan biri bo‘lgan tergov eksperimenti tergov harakatining mohiyati, uning kriminalistik taktik xususiyatlari, vazifalari xususida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** tergov jarayoni, tergov eksperimenti, vaziyatni tiklash, ko‘rsatuvlarni tekshirib ko‘rish, mutaxassis, rasmiylashtirish.

### Аннотация:

В статье автор рассуждал о сущности следственного действия, его криминалистических тактических особенностях, задачах следственного эксперимента, одного из видов следственного действия, применяемого при расследовании преступлений.

**Ключевые понятия:** следственный процесс, следственный эксперимент, восстановление ситуации, проверка показаний, экспертиза, оформление.

### Abstract:

In the article, the author reflected on the nature of the investigative action of the investigative experiment, its criminalistic tactical features, tasks, which are one of the investigative actions used in the investigation of crimes.

**Key concepts:** investigation process, investigative experiment, recovery of the situation, examination of the shows, specialist, formalization.

Jinoyatlarni fosh etish maqsadida amalga oshiriladigan muhim va qiziqarli tergov harakatlaridan biri tergov eksperimenti hisoblanadi.

Tergov eksperimenti deganda yangi dalillar topish, mavjud dallillarni tekshirish maqsadida maxsus sinovlar o‘tkazish, shuningdek ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan



faktlarning bo'lishi yoki bo'lmasligi, tergov versiyalarini tekshirish hamda ularni baholashga qaratilgan tergov harakatini tushunish mumkin. Tergov eksperimenti mustaqil tergov harakati bo'lib, ish bo'yicha mavjud dalillarni tekshirish, yangi dalillar topish maqsadida jinoiy hodisa sodir etilgan vaqtdagi vaziyatni tiklash, tergov jarayonida vujudga kelgan versiya (tahmin) larni tekshirish va ularni baholashni o'z ichiga oladi.

Tergovchining ish bo'yicha to'plangan dalillarga baho berish, u tomonidan tergov qilinayotgan voqea holati to'g'risida hosil bo'lgan gumonlarning tekshirilishi tergov jarayonida ma'lum bo'lgan holatlarni bevosita kuzatishni talab qiladi, bunday holatda tergovchi tergov qilinayotgan jinoiy hodisaning ayrim detallarini sun'iy tiklash, ya'ni tergov eksperimenti o'tkazish yo'li bilan yoki bevosita kuzatish orqali voqeaning kelib chiqish sabablarini o'rganadi.

Ko'zdan kechirish vaqtida predmetlar va voqea vaziyati holati qanday bo'lsa, shu holligicha kuzatiladi. Eksperiment o'tkazilayotganda esa voqea vaziyat holati sun'iy ravishda qayta tiklangan holda sinov o'tkaziladi. Ko'zdan kechirish va tergov eksperimentining kriminalistik kriminalistik analizi shuni ko'rsatadiki, ularning o'rtasida deyarli farq bo'lmasa-da, tergov harakatini mustaqil xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 153-moddasida<sup>1</sup> eksperiment biror hodisani idrok qilish, muayyan harakatlarni bajarish, biror hodisanin sodir bo'lish imkoniyatini tekshirish va aniqlash maqsadida surishtiruvchi, tergov va sud guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilarning ko'rsatuvlarni, boshqa dalillarni, shuningdek, ish yuzasidan qilingan tasmol, tekshirilayotgan hodisaga oid muayyan harakatlar, sharoit va holatlarni tiklash hamda zaruriy tajribalar va sinovlar o'tkazish yo'li bilan tergov eksperimentini olib borishi mumkinligi qayd etilgan. Bunda tergovchi zarur bo'lgan hollarda mutaxassislarni jalb qiladi, fotosuratga yoki video tasvirga olishi mumkin, jinoyat joyining rejasini tuzadi.

Ayblanuvchilarning harakatlarini qayta tiklash, agar bu jabrlanuvchining qadr qimmatiga putur yetkazmaydigan, o'lgan kishini taqirlamaydigan, shuningdek, mana shu eksperiment qatnashsilarining salomatligiga, hamda, davlat va fuqarolarning manfaatlariga zarar keltirmaydigan hollardagina o'tkaziladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi. [Lex.uz/docs/111460](http://Lex.uz/docs/111460).



Hodisa vaziyatini va holatini tiklash vaqtida xolislar hozir bo'lishi lozim. Zarur bo'lib qolgan hollarda ayblanuvchi, ayblanuvchi jabrlanuvchi, guvohlar ham chaqiriladi.

Hodisa vaziyatini va holatini tiklash to'g'risidagi bayonnoma JPKning 90-92-moddalari<sup>2</sup> dagi qoidalarga rioya qilgan holda tuziladi.

Tergov eksperimenti yangi dalillar topish, mavjud daliliy faktlarni hamda tergov versiyalarini tekshirish va baholash uchun o'tkaziladi.

Tergov eksperimenti ishda to'plangan dalillarni tekshirish vositasi sifatida dastlabki tergov, surishtiruv va sud organlari tomonidan keng qo'llaniladi.

Ma'lumki, dalillarni to'plash (topish, mustahkamlash va olish) teshirish va ularni baholash tergovchining asosiy vazifasidir. Dalillarni tekshirish, materillarni taqqoslash, yangi dalillar topish, ayblanuvchi va guvohlarning shaxslarini aniqlash va boshqa yo'llar bilan (masalan, tergov eksperimenti o'tkazish yo'li bilan) ham amalga oshirilishi mumkin.

Tergov yurgizish jarayonida vujudga kelgan tergov versiyalari chuqur tekshirishni talab qiladi. Versiyalar butun jinoyatga yoki ishning ayrim holatlariga taaluqli bo'lishi mumkin. Tergov eksperimenti tergov versiyalarini tekshirish va ularni baholash vositalaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday holatlarda yakka dalillar, misol uchun guvohning ko'rsatuvigina tekshirilmasdan, balki u ishda to'plangan barcha dalillar birgalikda tekshirilishi lozim. Tergov eksperimenti natijasida yangi fakt, yangi holat aniqlanishi mumkin.

Tergov versiyalarini tekshirish va baholash maqsadida o'tkaziladigan tergov eksperimentlarining natijalari hamma vaqt ish bo'yicha yangi dalil hisoblanadi, zero natija tergovchining tegishli daliliga asoslanmagan gumon va mulohazasini shubhasiz dalilga aylantiradi.

Tergov amaliyotida bir qator tergov eksperimentini qo'llashga to'g'ri keladi. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

- biror hodisani amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tergov eksperimentlari (masalan, mazkur shaxs muayyan vaqt ichida tegishli masofani bosib yoki chopib o'ta olishini yoki biror detallni ishlab bera olishini bilib olish uchun) qo'llaniladi.
- muayyan faktni ko'rish yoki eshitish mumkinligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tergov eksperimentlari (masalan, guvohlar, ayblanuvchi,

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi. [Lex.uz/docs/111460](http://Lex.uz/docs/111460).



jabrlanuvchilarning o'z quloqlari bilan miltiq, avtotransport kishilarning gaplashgan ovozini eshitganliklari yoki tergovchini qiziqtirayotgan voqeani ko'rganliklari to'g'risida aytganlarini haqiqatga to'g'ri kelishini tasdiqlab olish uchun) o'tkaziladi.

- biror harakatni sodir qilish mumkinligini aniqlash uchun tergov eksperimenti (masalan, biror teshik orqali binoga kirish va undan predmetni olib chiqish, ma'lum vaziyatda biror harakatni sodir qilish mumkinligini aniqlash uchun) o'tkaziladi.

- tergov qilinayotgan voqea vaziyatini tiklash uchun o'tkaziladigan tergov eksperimentlari. Tergov eksperimentining bu turi ish bo'yicha jinoyatning sodir qilinishi vaziyatini ko'p o'rganishini talab qiladi.

- sodir etilgan jinoyat hodisasini tiklash uchun o'tkaziladigan tergov eksperimentlari. Bu xil tergov eksperimentlari xonalarni qulflarini buzib kirish va shu kabi holatlarni aniqlash talab qilingan hollarda jinoyatchi va jabrlanuvchi ko'rsatuvlarini tekshirish va aniqlash uchun o'tkaziladi.

- tergov eksperimenti ko'pchilik holatlarda biror harakatning oldini olish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash uchun ham o'tkaziladi. Bu xildagi eksperiment avtotrasport va boshqa harakat bilan bog'liq hollarda o'tkaziladi. Sud va tergov amaliyotida transport hodisalari, odamni bosib ketish yoki boshqa turdagi tartib qoidalarni buzish natijasida baxtsiz hodisalar yuz berishi, hatto, insonlar o'limi bo'lishi ham mumkin. Tergov jarayonida, aksariyat holatlarda ayblanuvchilar javobgarlikdan qutilishi maqsadida turli va asossiz vajlarni keltirib o'zini aybsiz qilib ko'rsatib, ushbu voqeaning asosiy sababchisini jabrlanuvchi deb ko'rsatishga urinadilar. Bunday holatlarda tergovchi yuz bergan voqeaning qanchalik to'g'riligini va uning oldini olish mumkin emasligini aniqlash maqsadida eksperiment o'tkazadi.

Bunday vaziyatda jinoiy harakatning xarakterini va aniqlanishi lozim bo'lgan voqea vaziyatini sun'iy tiklash bilan tajribada sinab ko'rish uchun eksperiment o'tkaziladi.

Tergov eksperimenti ishtirokchilari ichida markaziy o'rinni o'z-o'zidan tergovchi va harakatni bajarish yuklatilgan tezkor xodim egallaydi. Eksperiment ishtirokchilarini tanlash tergovchiga va o'tkazilayotgan eksperimentning xususiyatiga bog'liq. Tergov eksperimenti bayonnomasini tergovchining o'zi tuzadi. Eksperiment natijalari to'g'ri va aniq bayon qilish muhim ahamiyatga ega.

Tergovchi tergov eksperimenti o'tkazishda davlat va jamoat organlari va ularning vakillaridan hamda ayrim fuqarolardan topshirilgan ma'lum harakatning bajarilishini talab qilish huquqidan foydalana oladi. Eksperiment o'tkazishda,



xolislar ishtirok qilishi lozim bo'lgan mutaxassislar va boshqa ishtirokchilar doirasini belgilaydi. Tergov eksperimentini o'tkazishda rahbarlikni tergovchi olib boradi.

Eksperiment o'tkaziladigan joy boshqa tuman hududida bo'lsa, aniq shaxslarni jalb qilish shart bo'lmasa, bu holda umumiy tartibda hal qilinadi. Eksperiment ma'lum shaxslarning ishtirok qilishini zarur deb topsa, biroq eksperiment o'tkaziladigan joy boshqa tuman hududida bo'lsa ishtirokchilar bilan birga tergovchining o'zi o'sha joyga boradi.

Xolislar tergovchi tomonidan bajarilgan harakatlarni o'z ichiga olgan tergov harakatlarining mazmunan obyektivligini rasmiylashtiradilar. Xolislar faqatgina tergov harakatining guvohi bo'lmasdan, eksperimentlarning ham faol qatnashchilari hisoblanadi. Tergov eksperimenti vaqtida uning ishtirokchilariga yuklatilgan vazifaning jiddiyligini anglashlari vazifalarni bajarishga vijdonan yondoshishlari, eksperiment vaqtida ma'lum bo'lib qolgan ish materiallarini sir saqlash lozimligini bilishlari shart.

Eksperiment tezkor ma'lumotlarga asoslanib o'tkazilayotganda tezkor xodimning eksperimentda qatnashuvi ayniqsa maqsadga muvofiqdir. Eksperiment davomida o'tkaziladigan sinovlarning mazmunini o'zgartirish bilan tezkor ma'lumotlarni tekshirish mumkin. Eksperiment o'tkazishda mutaxassisning ishtirok etishi foydadan holi emas. Mutaxassis eksperiment vaziyatini qayta tiklash va o'tkazish oldidan ishtirokchilarni joy-joyiga qo'yishda, texnik jihatdan to'g'ri o'tkazilishiga yordam beradi, eksperiment natijalariga baho berishda tergovchiga zarur bo'lgan maslahatlarni beradi. Tergov eksperimentini o'tkazishda voqeani o'z ko'zi bilan ko'rgan guvoh va jabrlanuvchilar ham ishtirok etishlari mumkin.

Guvoh yuz bergan hodisa vaziyatini qayta tiklashga, shu bilan birga yuz bergan hodisaning qanday davom etganiga doir kerakli ma'lumotlarni beradi. Tergov eksperimenti guvohlarning ko'rsatuvlarini tekshirish maqsadida o'tkazilsa, guvohlarning o'zlari tegishli harakatni shaxsan namoyish qilish bilan qatnashadilar.

Eksperiment ayblanuvchining ko'rsatuvini tekshirish maqsadida o'tkazilayotgan bo'lsa, bu holda ayblanuvchini eksperiment o'tkazishga qatnashish uchun jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Ayblanuvchi jinoyat sodir bo'lgan vaqtda bajargan harakatlarni to'la namoyish qiladi, ish bo'yicha to'g'ri ma'lumotlar bera boshlaydi.



Demak, yuqorida keltirilgan fikrlardan tergov eksperimentining jinoyatlarni to'liq va sifatli fosh etishda, adolatni ta'minlashda qanchalik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi. Lex.uz/docs/111460.
3. Kriminalistika. Darslik “Adolat” nashriyoti. –T.: 2003-y. 1-jild. Prof. F. A. Abdumajidov, dots. A. Norboyev, dots. R. Alimova va boshqalar.
4. Kriminalistika taktikasi. O'quv qo'llanma “Yangi asr avlodi” -T.: 2000-y.
5. Вопросы назначения и производства автотехнической экспертизы в жур. “Следователь” федеральное издание честь и закон №12 М.1999 г.

